

a-pay

ELEKTRON PULLARDAN FOYDALANGAN
HOLDA HISOB-KITOB ISHTIROKCHILARI
O'RTASIDA AXBOROT VA TEXNOLOGIK
O'ZARO HAMKORLIKNI TA'MINLASH
BO'YICHA XIZMAT KO'RSATISH

OMMAVIY OFERTA

Toshkent sh.



O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367- va 369-moddalariga muvofiq mazkur Shartnoma yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga (bundan keyin matnda – Merchant) qaratilgan direktor Ko Andrey Nikitovich (bundan keyin matnda – Tizim Operatori) vakili bo'lgan «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» mas'uliyati cheklangan jamiyatning Ommaviy ofertasi hisoblanadi.

«CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankingning 09. 01. 2021 yildagi 21-sonli Litsenziyasi asosida To'lov Tashkiloti maqomiga ega, To'lov tashkilotlari Reyestrda ro'yxatdan o'tgan, «A-Pay» Elektron pullar Tizimining Operatori hisoblanadi.

Ushbu Ofertaning matni bilan batafsil tanishib chiqing va uning qaysidir bandiga rozi bo'lmagan taqdiringizda «A-Pay» elektron pullar Tizimining Operatori (bundan keyin matnda – Operator, Tizim operatori) Sizga mazkur Ofertaning akseptini rad etishingizni taklif etadi.

Mazkur shartnoma u Merchant tomonidan imzolangan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Mazkur Shartnoma maqsadlarida aksept deganda asosida «A-Pay» elektron pullar tizimida Merchantning ro'yxatdan o'tganlik holati va ushbu Ofertaning shartlariga roziligini bildirishi tushuniladi.

Tizim Operatori ro'yxatdan o'tish vaqtida taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish va mazkur Ofertaning akseptini rad etish huquqini o'zida olib qoladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. «A-Pay» Elektron pullar tizimi (bundan keyin matnda – Tizim, «A-Pay» Tizimi) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida «A-Pay» tizimi ichida Elektron pullardan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshiradi.
- 1.2. «A-Pay» Tizimi servis sifatida faoliyat olib borib, undan foydalanish <https://www.A-Pay.uz> manzilida joylashgan saytdagi Shaxsiy kabinet, «A-Pay» mobil ilovasi orqali yoki «A-Pay» tizimi Agenti dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshiriladi.
- 1.3. «A-Pay» Elektron pullar Tizimi yordamida tovarlar va xizmatlar taqdim etuvchi tijorat va notijorat tashkilotlar foydasiga to'lovlarni, shuningdek, jismoniy shaxslar o'rtasida Elektron pullar jo'natmasini amalga oshirish mumkin.
- 1.4. Mazkur Shartnomada va unga bo'ladigan Qo'shimchalar va ilovalarda, shuningdek, ushbu Shartnoma bo'yicha har qanday yozishmalardagi barcha atamalar va ta'riflar Tizim Sayti va (yoki) mobil ilova orqali kirish mumkin bo'lgan «A-Pay» Elektron pullar Tizimining Qoidalariga (bunday keyin matnda – Qoidalar, Tizim Qoidalari) muvofiq talqin etiladi.
- 1.5. Tizim Operatori va Merchant o'rtasidagi munosabatlar mazkur Shartnoma, «A-Pay» Tizimi Qoidalari, Tariflari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 1.6. Mazkur Ofertaning aksept maqsadlarida Merchant Operator tomonidan belgilangan shakl bo'yicha «A-Pay» Tizimida ro'yxatdan o'tadi va Oferta shartlariga o'zining roziligini bildiradi. Merchant tomonidan mazkur Shartnomaning barcha shartlarini istisnosiz qabul qilinishi akseptni anglatadi.
- 1.7. Tizim Operatori tomonidan Oferta aksepti rad etilgan taqdirda Operator bu haqda yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorni aloqaning har qanday vositasi bilan akseptning rad etilish sababini tushuntirmagan holda 5 (besh) ish kunida ma'lum qiladi.

- 1.8. Tizim Operatori Merchantga to'lovlar xizmatini taqdim etish doirasida axborot-texnologik yordam ko'rsatadi. Mazkur shartnomaning shartlari Tizim Operatori tomonidan belgilanadi va Merchant tomonidan mazkur Shartnomaning Aksept yo'li bilan to'laligicha, istisnolarsiz va cheklovlarsiz qabul qilinishi mumkin.
- 1.9. Tizim operatori bir tomonlama tartibda Shartnoma, Tizim Qoidalari, Tariflar, komission rag'batlantirishlar (bundan keyin matnda – Tariflar) shartlariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Mazkur Shartnoma shartlari, Tariflari, Tizim Qoidalariga o'zgarishlar kiritilgan taqdirda Tizim Operatori Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalarining yangi tahriri kuchga kirguniga qadar o'zgartirilgan tahrir matnini Tizimning Sayti va (yoki) mobil ilovasida e'lon qiladi, bunday o'zgarishlarning kuchga kirish muddatini ular e'lon qilingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kundan kam bo'lmagan tartibda belgilaydi. Kiritilgan o'zgartirishlar bilan tanishish uchun berilgan muddat ichida ayrim bandlarga rozi bo'lmagan taqdirda Merchant Tizim Operatoriga u va Tizim Operatori o'rtasida tuzilgan Elektron pullarni ishlatgan holda hisob-kitob ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologiya hamkorligini ta'minlash bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish Shartnomalari bekor qilinganligi to'g'risida xabar yuborish huquqiga ega. Xabar jo'natilganda Shartnoma yangi tahrirdagi Shartnoma kuchga kirgan sanadan boshlab bekor qilingan hisoblanadi.
- 1.10. Merchant yangi tahrirdagi Shartnoma kuchga kirgan sanadan keyin Tizimdan foydalanishning har qanday shakli, shu jumladan, Tizim hamkorlarining infratuzilmalari orqali foydalanish, Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlarga so'zsiz roziligini anglatadi va qabul qiladi. Shartnomaning yangi qoidalari, Tariflar, Tizim Qoidalari eski tahrirdagi qoidalarning oldida mutlaqo ustunlikka egadir. Shartnomaga Qo'shimcha kelishuvlar tuzilmaydi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Mazkur Shartnoma Tizim Operatori va Merchant o'rtasidagi «A-Pay» Elektron pullar Tizimidagi ishtiroki, Merchantning Elektron pullar Egalaridan – jismoniy shaxslardan fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha to'lov sifatida Elektron pullarni olishi va Emitent tomonidan Merchantning Elektron pullarini qaytarishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Merchant va Tizim Operatori o'rtasidagi o'zaro aloqa mazkur Shartnoma va Tizim Qoidalari asosida amalga oshiriladi.
- 2.2. Tizim Operatori Merchanga haq to'lash asosida quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:
 - 2.2.1. «A-Pay» Tizimi Ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro axborot va texnologik aloqalarni ta'minlash bo'yicha;
 - 2.2.2. Elektron pullar bilan bog'liq amaliyotlarning hisob-kitob ishtirokchilari uchun axborotni yig'ish, ishlov berish va tarqatish bo'yicha;
 - 2.2.3. Merchantga Elektron hamyon ochish va unga Tizim doirasida to'liq texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha;
 - 2.2.4. Shartnoma doirasida Merchant «A-Pay» Tizimi orqali taqdim etilgan xizmatlar, tovarlar uchun to'lov sifatida Egalar-jismoniy shaxslardan Elektron pullarni qabul qiladi;
 - 2.2.5. Tizim Operatorining ko'rsatmasiga ko'ra, Emitent Bank Merchantdan olingan Elektron pullarni uning bank hisob raqamiga teng miqdordagi summani o'tkazish orqali qaytaradi;
- 2.3. Tomonlarning har biri uni tegishli shaxs tomonidan taqdim etilishini va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Shartnoma doirasida harakat qilish huquqiga ega ekanligini kafolatlaydi.

- 2.4. Merchant tomonidan Elektron pullarni ishlatish amaliyotlari Tizimda ro'yxatda o'tganidan va masofaviy kirish orqali boshqariladigan Elektron hamyonga kirish huquqini olganidan so'ng amalga oshiriladi. Merchant o'zining ochiq elektron hamyoniga Elektron pullarni sotgan tovarlari, xizmatlari, ishlari uchun faqat Elektron pullarning Egalari-jismoniy shaxslardan oladi.
- 2.5. Elektron pul Egasi Elektron puldan foydalangan holda to'lovni amalga oshirganidan so'ng Tizim Elektron pullarning Egasiga mazkur pullarni ishlatgan holda amaliyot amalga oshirilganlik holatini tasdiqlovchi elektron chekni elektron xabar shaklida (bundan keyin matnda – savdo cheki) taqdim etadi, unda quyidagi majburiy rekvizitlar bo'ladi:
 - 1) to'lov miqdori;
 - 2) to'lovni amalga oshirish vaqti (soat, daqiqa, soniya) va sanasi (kun, oy, yil);
 - 3) tasdiqlovchi hujjatning raqami;
 - 4) yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning nomi (kodi), STIR raqami;
 - 5) to'lovni identifikatsiya qiluvchi tranzaktsiya kodi;
 - 6) elektron pullar egasi – jismoniy shaxs hamyonining identifikatsion kodi;
 - 7) boshqa rekvizitlar (zarurat tug'ilganda).
- 2.6. Tizim tomonidan Tizim Qoidalarida qayd etilgan asoslar bo'yicha Merchantning Elektron hamyonidagi Elektron pullarni Elektron pullarni Egasining elektron hamyoniga qaytarish imkoniyati ko'zda tutiladi. Elektron pullarni jo'natuvchining elektron hamyoniga qaytarish tartibi, muddati va shartlari Tizim Qoidalarida belgilanadi.
- 2.7. Tomonlar Qoidalarning shartlari mazkur Shartnomaning shartlaridan ustun turishini ta'kidlaydilar va mazkur Shartnomaning ayrim qoidalari o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgan holatlarda Qoida ustunlikka ega hisoblanadi.
- 2.8. Tomonlar tizim Operatori oldindan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirmasligini, shuningdek, bank amaliyotlarining ayrim turlarini hech qanday tarzda bajarmasligini alohida sharhlab o'tadilar va tasdiqlaydilar.

3. SHARTNOMANI (OFERTA AKSEPTINI) TUZISH VAQTI

- 3.1. Mazkur Shartnomaning matni ommaviy oferta (mazkur shartnomani tuzish taklifi bilan) hisoblanishiga asoslangan holda Merchant «A-Pay» Tizimida Operator tomonidan o'rnatilgan shakl bo'yicha ro'yxatdan o'tish mazkur ommaviy ofertaning Aksepti (mazkur shartnomani tuzish taklifini qabul qilish bilan) hisoblanishini va Oferta shartlariga roziligining ifodasini tan oladi.
- 3.2. Mazkur Shartnomaning akseptini amalga oshirib, Merchant Tizimning Qoidalari, Tariflari bilan tanishish holatini tasdiqlaydi. Tizimning Qoidalari, Tariflari bilan Merchant <https://www.A-Pay.uz> elektron manzili orqali tanishish imkoniga ega bo'ladi.

4. MERCHANTNING TIZIMDA RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI

- 4.1. «A-Pay» Tizimining Merchanti sifatida faoliyatni amalga oshirish uchun ro'yxatdan o'tish tartibida o'tishi zarur.
- 4.2. Ro'yxatdan o'tish tartibidan so'ng Merchantga «A-Pay» Tizimi doirasidagi lozim bo'lgan maqom beriladi va tegishli huquq taqdim etiladi.
- 4.3. Merchant Tizimga kirish uchun autentifikatsion ma'lumotlar, parol maxfiy axborot ekanligiga rozilik beradi. Merchant Tizim Operatoriga Tizimga kirish huquqiga ega shaxslar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi va Tizim Operatorini mazkur ma'lumotlar o'zgargan taqdirda zudlik bilan ogohlantirish majburiyatini oladi.

5. MOLIYAVIY SHARTLAR

- 5.1. Tizim Operatori haq to'lash hisobiga axborot-texnologik ko'rinishdagi xizmatlarni ko'rsatadi, bunda tizim Operatoriga to'lanadigan haq miqdori Merchant tomonidan mustaqil ravishda tanlangan hamda Tizim Operatorining saytida joylashtirilgan tarif bo'yicha belgilanadi. Operatorga haq to'lash Elektron pul o'tkazmalarining barcha miqdorlaridan elektron pul shaklida ushlab qolinadi. Haq to'lashni ushlab qolish Operator tomonidan Tizimda amaliyotlar o'tkazilayotganda amalga oshiriladi.
- 5.2. Tizim Operatori har oyda Merchantga bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob fakturasini elektron ko'rinishda keyingi hisobotga qadar oyning 10 (o'ninchi) sanasidan kechikmagan holda taqdim etadi. Merchant 10 (o'n) kalendar kuni davomida qo'yilgan hujjatlarni elektron hisob fakturalari operatori orqali imzolash majburiyatini oladi. Merchantda e'tiroz mavjud bo'lgan taqdirda u hujjatlar qo'yilganining 10 (o'n) kalendar kunida Tizim Operatoriga uni imzolamasligining asoslangan raddiyasini jo'natishi shart. Aks holda dalolatnoma va hisob fakturasi imzolangan, tizim Operatorining majburiyatlari to'la hajmda bajarilgan hisoblanadi. Tomonlarning ma'lumotlarida tafovut mavjudligida va Merchant tomonidan bajarilgan ish dalolatnomasi va hisob fakturasiga imzo chekishni rad etgani to'g'risidagi javobni yuborgan paytidan boshlab, 14 (o'n to'rt) kalendar kun ichida bunday tafovutlarni aniqlash va bartaraf etish imkoni bo'lmagan taqdirda o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ushbu tafovutlarning sabablari aniqlanguniga qadar Tizim Operatorining ma'lumotlari asos qilib olinadi. Ular bartaraf etilganidan so'ng Tomonlar o'zaro to'lovlarning qiymatini tuzatadilar va zarurat tug'ilganda hujjatlarga tuzatishlar kiritadi.
- 5.3. «A-Pay» Tizimida Elektron pullarning harakatlanish tartibi Tizim Qoidalariga muvofiq belgilanadi.

6. ТОМОНЛАРНИНГ ХУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

6.1. Operator:

- 6.1.1. Merchant tegishli ro'yxatdan o'tish tartibini amalga oshirganidan so'ng unga elektron hamyon ochishga;
- 6.1.2. Tizim Qoidalariga muvofiq Merchant tomonidan Elektron pullarning Merchantning elektron hamyoniga ishlashi va qabul qilinishini ta'minlashga;

- 6.1.3. Emitent Bankning Merchant tomonidan qabul qilingan Elektron pullarni Merchantning bank hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan yopilishini ta'minlashga majbur. Elektron pul egalari- jismoniy shaxslardan olingan Elektron pullarni qaytarish zarurligi to'g'risidagi ariza Merchant tomonidan Shartnomada nazarda tutilgan aloqaning elektron kanallari orqali jo'natiladi.
- 6.1.4. Merchantning so'rovi bo'yicha Operatorida mavjud va Tizim faolyatiga taaluqli bo'lgan Merchant uchun zarur har qanday me'yoriy ma'lumot axborotlarini, shuningdek, telefon, faks va elektron pochta bo'yicha maslahat ko'magini taqdim etadi. Ma'lumotlar va texnik vositalarni uchinchi shaxslarning qonunga zid harakatlaridan kompleks ravishda himoyalashni amalga oshirish;
- 6.1.5. O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlar va ularni himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligida belgilangan Merchant/Merchantning vakolatli shaxslarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilinishini ta'minlovchi shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish; shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish holatini bartaraf etish imkoni bo'lmagan taqdirda uni o'z vaqtida aniqlash; shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish;
- 6.1.6. Merchantga Elektron hamyonning interfeysiga tegishli elektron xabar yuborish orqali Elektron hamyonni to'ldirish bo'yicha har bir amaliyotning sodir etilishi to'g'risida xabar berish.
- 6.1.7. Xabarda Elektron pul Egalarining maqomini ko'rsatgan holda Elektron pul Egalari-jismoniy shaxslar tomonidan Elektron pullar bilan bog'liq amaliyotlar sodir etilganda ularning identifikatsiyalangan va identifikatsiyalanmagan sifatida aniqlash imkoniyatini ta'minlash.
- 6.1.8. Merchantning yozma so'rovi bo'yicha Elektron pullarni ishlatish amalga oshirilganligi amaliyotlari to'g'risidagi hisobotni elektron shaklda (Operator tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlangan shaklda) so'rov olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kunida taqdim etish.
- 6.1.9. Tizimda nosozlik ro'y bergan, xakerlik hujumi oqibatida Bank ma'lumotlari bo'yicha Emitentning qoplashi amalga oshiriladigan Reyestrda ma'lumotlarning buzilishiga olib kelgan hollarda barcha zarur choralarni ko'rish (Operatorning ichki tartibiga muvofiq).
- 6.1.10. Tizimning ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarish, jumladan, Operator hamda Emitent o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha Operatorga yuklatilgan Tizimdagi Elektron pullar bilan amaliyotlarni o'tkazish uchun Tizim Ishtirokchilarini axborot texnologiyalari va amaliyotlar bilan ta'minlash.

6.2. Operator:

- 6.2.1. Merchantdan shartnoma majburiyatlarini bajarishini talab qilish;
- 6.2.2. Merchant tomonidan Elektron pullarni quyidagi hollarda ishlatish amaliyotlarini sodir etishni taqiqlash:
 - a) Merchantdandan blokirovkalash zarurligi to'g'risida xabar olish;
 - b) mazkur Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarning Merchant tomonidan bajarilmasligi;
 - c) Merchantning Elektron pullardan foydalanish talablari va shartlarini ga oshirishi;
 - d) vakolatli organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan asosda Merchantning Elektron pullarini taqiqlab qo'yish;
 - e) agar O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida» gi Qonunida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lsa;
- 6.2.3. Merchantning Tizimda ro'yxatdan o'tishini rad etish, shuningdek, tizimda ro'yxatdan o'tish paytida Merchant tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar va Operatorga taqdim etilgan boshqa hujjatlar (shu jumladan, sayt va Merchantning biznesiga nisbatan) ishonchsizligi aniqlangan taqdirda Merchantning elektron hamyonini taqiqlash.

- 6.2.4. Merchantdan mazkur Shartnoma, Tizim Qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bo'yicha majburiyatlarini bajarishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rab olish.
- 6.2.5. Merchant tomonidan tizim Qoidalari va mazkur Shartnoma shartlariga rioya qilmagan hollar aniqlangan taqdirda uning tizimda ishlashini to'xtatib qo'yish.
- 6.2.6. Uchinchi shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Elektron pullarni yopib qo'yish to'g'risida murojaat tushgan taqdirda Merchantning Elektron hamyonidan akseptsiz, nizosiz tarzda (Merchantning qo'shimcha buyrug'i/ko'rsatmasisiz) Elektron pullarini olib qo'yish huquqlariga ega. Mazkur Shartnomani tuzar ekan Merchant Operator Bank Emitentiga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o'zining Elektron hamyonidan Elektron pullarining akseptsiz olib qo'yilishiga rozilik beradi.
- 6.2.7. Tizim Operatori mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun o'zining qisman huquq va vakolatlarini uchinchi shaxslarga topshirish huquqiga ega. Operator tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'zining qisman huquq va vakolatlarini uchinchi shaxslarga topshirishi uni shartnoma bo'yicha ishlash majburiyatidan ozod qilmaydi va mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar buzilganligi uchun javobgarlikdan soqit qilmaydi.
- 6.2.8. Tizim Operatori tovar, Merchantning xizmatlari, matnli, audiovizual, grafik mazmundagi, surat ko'rinishidagi reklama axborot materiallari to'g'risidagi axborotni Merchant tomonidan axbrotni taqdim etish sharti bilan joylashtiradi. Bunda Operator Merchant tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning qonunchilikka mos kelishini tekshirish va nazorat qilish majburiyatini olmaydi.
- 6.2.9. Tizim Operatori Mijozlar tomonidan ishkoyat qilingan, davlat idoralarning Merchantga va sotayotgan tovarlarga nisbatan murojaatlari yuzaga kelgan holatlarda barcha vaziyatga oydinlik kiritilguniga qadar Merchantning tovari to'g'risidagi axborotni, reklama axborot materiallarini joylashtirishni to'xtatib turadi.

6.3. Merchant quyidagilarga majbur hisoblanadi:

- 6.3.1. Mazkur Shartnoma, tizim Qoidalari, Tariflarda bayon etilgan talablar bilan tanishish va ularni bajarish.
- 6.3.2. Tizim Operatoriga «A-Pay» tizimida ro'yxatdan o'tish va mazkur tizim Merchanti sifatida faoliyatni amalga oshirishda ishonchli ma'lumotni taqdim etish. Tizim Operatori Merchant tomonidan taqdim etilgan ishonchsiz ma'lumot oqibatida kelib chiqqan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 6.3.3. Merchantni Tizimda identifikatsiyalash uchun Tizim Operatoriga Mijozlardan Elektron pullarni qabul qilishda zarur bo'lgan axborotni taqdim etishi
- 6.3.4. Emitent tomonidan Merchantga tegishli bo'lgan Elektron pullar qoldig'i (uning qismi) to'laganidan so'ng olingan pul o'tkazmalarini oishirgish uchun kamida bitta bank himob raqamiga bo'lishi.
- 6.3.5. Tizimdan boshqa Ishtirokchilar, uchinchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi me'yorlarini buzmagani va ta'sir etmagan holda foydalanish.
- 6.3.6. Tizimdan foydalanish maqsadida unga Tizim Operatori, shuningdek, Emitent tomonidan berilgan maxfiy axborotni hech kimga bermaslik, shu jumladan, uchinchi shaxslarga o'z Hamyonidan foydalanishiga yo'l qo'ymaslik, o'ziga tegishli bo'lgan autentifikatsiya ma'lumotlarini fosh qilmaslik.
- 6.3.7. Tizimga kirish moslamasining ishga layoqatligi va axborotni himoyalash to'g'risida mustaqil ravishda qayg'urish.

- 6.3.8. Tizimning dasturiy ta'minotiga mustaqil ravishda yoki uchinchi shaxslarni jalb etgan holda to'liq yoki qisman o'zgartirishga harakat qilmaslik va kiritmaslik.
- 6.3.9. Merchant nomidan tizimga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxsning ma'lumotlari o'zgargan taqdirda autentifikatsiya ma'lumotlariga o'z vaqtida o'zgarishlarni kiritish, «A-Pay» tizimi Operatorini bunday shaxs to'g'risidagi o'zgarish to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish.
- 6.3.10. Elektron pul Egalarining-jismoniy shaxslarning o'tkazgan Elektron pullarini Merchantning Elektron hamyoniga ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov sifatida qabul qilish;
- 6.3.11. Elektron pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi elektron arizada O'zbekiston Respublikasidagi bankda ochilgan bank hisob raqamini pullarni qaytarish hisobiga naqd bo'lmagan shaklda hisob-kitob qilinishini ko'rsatish;
- 6.3.12. Elektron pullarni uni chiqargan Emitentlardan qat'i nazar, Merchant qabul qilishga majburdir.
- 6.3.13. Mijoz oldidagi o'z majburiyatlarini Elektron pullardan foydalanish bo'yicha tuzilgan fuqarolik-huquqiy bitimlarga muvofiq tegishli tarzda bajarish.
- 6.3.14. Mijozga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha zarur rekvizitlar mavjud bo'lgan Elektron pullardan foydalanish bo'yicha to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi savdo chekini taqdim etish.
- 6.3.15. Mijozga pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Shartnomaning shartlari va Tizim Qoidalariga muvofiq ravishda qaytarilishini amalga oshirish.
- 6.3.16. O'zining autentifikatsion ma'lumotlarining xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlash va bunday ma'lumotlardan foydalangan holda Tizimda Merchant nomidan faoliyat olib borishga vakolatli hisoblanmagan shaxslarning hamyonlariga kirishini cheklash.
- 6.3.17. Amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni va amaliyotlarning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ularga ijro etilganidan so'ng 5 (besh) yildan kam bo'lmagan muddatga saqlash.
- 6.3.18. Elektron pullarning Egalari – jismoniy shaxslar bilan amaliyotlarni bajarish:
 - 6.3.18.1. identifikatsiya qilingan Elektron pul Egalasi – jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta amaliyotning maksimal miqdorida, davlat tomonidan tegishli davr uchun o'rnatilgan 100 (yuz) BHQ (bazaviy hisoblangan qiymat)ga teng bo'lgan miqdordan oshmagan holda;
 - 6.3.18.2. identifikatsiya qilinmagan Elektron pul Egasi – jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta amaliyotning maksimal miqdorida, davlat tomonidan tegishli davr uchun o'rnatilgan 100 (yuz) BHQ (bazaviy hisoblangan qiymat) ga teng bo'lgan miqdordan oshmagan holda;
- 6.3.19. Elektron pulning noto'g'ri o'tkazilishi, yo'qolishi, o'g'irlanishi va Elektron hamyondan ruxsatsiz foydalanish aniqlangan taqdirda bu haqda zudlik bilan Operatorga yozma ravishda xabar berish va Operatorning Call-markaziga va (yoki) elektron pochta orqali qo'ng'iroq qilib xabar berish.
- 6.3.20. Mazkur Shartnomaning 5.1.9-bandiga ko'ra yuzaga kelgan vaziyatga to'g'ri munosabatda bo'lish va Operatorga Reyestrlarning qayta jo'natilishida to'liq yordam ko'rsatish va sodir bo'lgan nosozlikning tahlili yakunlari bo'yicha qiymatni o'zaro hisob-kitob qilishni amalga oshirish.
- 6.3.21. «A-Pay» tizimi orqali noqonuniy moliyaviy amaliyotlar, noqonuniy savdo, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bo'yicha amaliyotlar, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishini moliyalashtirish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzadigan boshqa amaliyotlarni amalga oshirmaslik.
- 6.3.22. Tovarlar/ishlar/xizmatlarni amalga oshirish to'xtatilgan yoki bekor qilingan holda, bu haqda Tizim Operatoriga zudlik bilan, biroq bunday harakatlar to'xtatilgan yoki bekor qilingan paytdan kechiktirmasdan xabar berish.

6. 3. 23. Elektron pul Egasi – jismoniy shaxs va Merchant o'rtasida amalga oshirilgan fuqarolik-huquqiy bitim to'xtatilib, Merchant va Elektron pul Egasi Operatorga Qoidalarda bayon etilgan tartibga muvofiq murojaat etgan, Elektron pullar Merchantga Emitent Bank orqali qaytarilgan bo'lsa, u holda Elektron pul Egasi bilan uning Merchantning tovar/ishlar/xizmatlari uchun to'langan Elektron pullarning miqdorini qaytarish muddati va tartibini mustaqil (Bank va Opretorni jalb etmagan holda) kelishib olish.
 6. 3. 24. Shaxsiy reklama-axborot materiallarining Tizim orqali tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lov usullari bilan bog'liq qismida «A-Pay» Tizimi to'g'risidagi ishonchli axborotni, shuningdek, Tizim haqidagi har qanday boshqa axborotni joylashtirish va qo'llab-qquvatlash.
 6. 3. 25. Merchantning Elektron hamyoni/bank hisob raqamiga noto'g'ri tushgan pullar, shuningdek, Elektron hamyonni yo'qotish, o'g'irlash va ruxsatsiz ishlatish bilan bog'liq faktlar aniqlangan taqdirda bu haqda Bank va Operatorni har qanday mumkin bo'lgan usullar bilan xabardor qilish. Merchantning Bank hisobiga adashib o'tkazilgan puli, noto'g'ri hisoblangan pul aniqlangan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Bankka qaytarilishi kerak.
 6. 3. 26. Operatoridan Merchantning Elektron hamyoniga noto'g'ri hisoblangan elektron pullar tushganligi to'g'risida xabar (ma'lumot) kelib tushgan taqdirda Bankka yozma shaklda yoki elektron xabar orqali noto'g'ri summa olinganini tasdiqlash va Elektron hamyonidan mazkur xato mablag'ni aksepsiz olib qo'yilishiga roziligini bildirish;
 6. 3. 27. Tizim operatori, bank Emitenti tomonidan tizim Operatori va Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy sayti chop qilinayotgan xabarlarni kuzatib borish.
 6. 3. 28. Tizim Operatoriga tovarlar, xizmatlar, ularga ega bo'lish shartlari, qiymati, to'lov tartibi, shuningdek, boshqa axborot to'g'risidagi reklama-axborot materiallarini berish. Merchant topshirilgan axborot umumqabul qilingan axloq-odob me'yorlarini buzadigan, O' shahvoniy, pornografiya, zo'ravonlik va zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlangan boshqa harakatlarni da'vat etuvchi materiallardan tashkil topmaganligini kafolatlaydi. Merchant topshirilgan axborotning ishonchliligini kafolatlaydi.
 6. 3. 29. Merchant Tizim Mijozlari tomonidan tovarlar, xizmatlarni sotish reklama-axborot materiallarida aks etgan shartlar bo'yicha amalga oshirilishini kafolatlaydi.
- 6. 4. Merchant quyidagi huquqlarga ega:**
6. 4. 1. Tizim Operatoridan mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq barcha zarur ma'lumotlarni so'rash.
 6. 4. 2. Elektron pullar egasidan bir tomonlama tartibda tovarlar va xizmatlar/ishlar uchun Elektron pullarni agar ular tomonidan qonunchilik va Tizim Qoidalarining talablariga rioya qilmagan, shuningdek, to'lov miqdori Elektron pullarning miqdoridan oshib ketgan hollarda qabul qilishni rad etishi.
 6. 4. 3. Emitent Bankdan Operator orqali Elektron pullarning Egalari – jismoniy shaxslardan fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha to'lov sifatida o'zining elektron hamyoniga kelib tushgan Elektron pullarni qaytarishni talab etish.
 6. 4. 4. O'zining ma'lumotlariga, shuningdek, Tizim Saytidagi Shaxsiy kabinetini orqali tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish.
 6. 4. 5. Tizim doirasida Operator bilan qo'shimcha kelishuvlar tuzish yo'li bilan mijozlarning sodiqlik (to'g'riligi) dasturini amalga oshirish.

- 6.4.6. Merchant Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi Ariza va unga tegishli hujjatlar jo'natilgan paytga qadar Tizim Operatori Merchant oldida hech qanday moliyaviy majburiyatni, jumladan, Mijoz tomonidan bajariladigan amaliyotlarga ishlov berilishini ta'minlash majburiyatini olmasligini tushunadi, anglab etadi va rozilik bildiradi. Merchant uning tomonidan Tizim Operatoriga Ariza va elektron hamyonni ochish bo'yicha barcha hujjatlarni taqdim etilishi tasdiqlangan paytga qadar Shartnomaning Tomonlarning o'zaro moliyaviy majburiyatlari bilan bog'liq qismi qonuniy kuchga kirmasligini tushunadi. Merchant qo'shilish, zarur hujjatlar to'g'risidagi arizani taqdim etishdan bosh tortishi, taqdim etmasligi va/yoki to'liq taqdim etmasligi Tomonlar o'rtasidagi Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq har qanday kelishuvlarini bekor qilish uchun asos hisoblanadi. Merchant «A-Pay» Tizim Operatori tomonidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng qo'shilish to'g'risidagi Ariza va so'ralgan ro'yxat bo'yicha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda to'lovlarni Elektron pullarda qabul qilish huquqi cheklanmasligini tan oladi.

7. ЭЛЕКТРОН ПУЛЛАРНИ ҚАЙТАРИШ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШ ТАРТИБИ

- 7.1. Elektron pullarni qaytarish Merchantning qaytarish to'g'risidagi Arizasiga muvofiq amalga oshiriladi. Merchant tomonidan berilgan ariza asosida Operator Emitent Bankka Elektron pullarni qaytarish bo'yicha tranzaksiya reestirini jo'natadi. Operator Merchantning arizasini qabul qilib, Emitent bilan tuzilgan shartnomaga asosan Emitent Bank nomidan faoliyat olib boradi.
- 7.2. Elektron pullarni qaytarish davlat hokimiyatining vakolatli organlarining ko'rsatmasiga binoan majburiy tarzda Merchantni majburiy ogohlantirish orqali amalga oshiriladi.
- 7.3. Elektron pullarning ko'rsatilgan miqdorini qaytarishga ruxsat berilganligiga shubha uyg'ongan taqdirda Tizim Operatori Merchantdan mavjud reyestr bilan solishtirish maqsadida Merchant o'ziga qabul qilgan majburiyatlarni bajarishni tasdiqlovchi hujjatlarini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.
- 7.4. Tizim Operatori tomonidan Merchantning Hamyoni blokirovkalangan taqdirda pulni qaytarish Hamyon ochilguniga qadar amalga oshirilishi mumkin emas.
- 7.5. Elektron pullarni qaytarish tartibi Emitent tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida mustaqil ravishda belginaladi va o'rnatiladi.
- 7.6. Merchant tomonidan Elektron pullar taqdim etilgan taqdirda Emitent Merchantning bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Elektron pullarni qaytaradi.
- 7.7. Elektron pullarni qaytarish deganda: 1) Merchantning Emitentda ochgan bank hisob raqamiga agar pullar tranzaksiyalar Reyestrtdagi ma'lumotlarga muvofiq o'tkazilishi lozim bo'lsa, pullarni jo'natish va o'tkazish; 2) Merchantning Emitentdan tashqari boshqa moliyaviy tashkilotlarda ochgan bank hisob raqamiga agar pullar tranzaksiyalar Reyestrtdagi ma'lumotlarga muvofiq o'tkazilishi lozim bo'lsa, pullarni jo'natish (o'tkazish emas). Pullarni qaytarish jarayonida pullarni Emitent bankidan tashqari boshqa moliyaviy tashkilotlarda ochilgan hisob raqamiga o'tkazish tartibi va muddati mazkur moliyaviy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va Emitent/Operator bunday moliyaviy tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan pul mablag'larining muddati uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 7.8. Merchantning Elektron pullarini qaytarish Emitent Bank tomonidan Merchant so'rov jo'natganidan va Tizim Operatori Emitent Reyestrta Elektron pullarni qaytarish to'g'risida tranzaksiya jo'natganidan so'ng amalga oshiriladi. Merchantning Elektron pullarni qaytarish to'g'risida jo'natilgan Arizasi va Reyestr Emitent ish kunining 16.00 gacha taqdim etilgan taqdirda Emitent o'zining joriy ish kuni davomida Merchantning hisob raqamiga Elektron pullarni qaytarish natijasida

olingan pul mablag'i jo'natmasini (o'tkazmasini emas) bajaradi. Merchantning Elektron pullarni qaytarish to'g'risida jo'natilgan Arizasi va Reyestr Emitent ish kunining 16.00 gacha taqdim etilgan taqdida Emitent o'zining joriy ish kuni davomida merchantning hisob raqamiga Elektron pullarni qaytarish natijasida olingan pul mablag'i jo'natmasini, har qanday holatda ham soat 12.00 gacha (o'tkazmasini emas) amalga oshiradi. Emitent Bankida ochilgan hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish Elektron pullarni qaytarish natijasida olingan pul mablag'lari hisob raqamiga jo'natilganidan so'ng 1 (bir) soat ichida o'tkaziladi. Pullarni qaytarish jarayonida pullarni Emitent bankidan tashqari boshqa moliyaviy tashkilotlarda ochilgan hisob raqamiga o'tkazish tartibi va muddati mazkur moliyaviy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va Emitent/Operator bunday moliyaviy tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan pul mablag'larining muddati uchun javobgar hisoblanmaydi.

- 7.9. Merchantning Elektron pullarni qaytarish to'g'risidagi arizasi va tranzaksiya Reyestri texnik integratsiya shaklida axborot kanallari orqali jo'natiladi. Merchant tomonidan qaytarib olish uchun taqdim etilgan amaliyotlar Reyestrini yuborishdan oldin Operator Merchantning hamyonidagi mavjud Elektron pullarning miqdorini tekshiradi va Elektron pullarni rejalashtirilayotgan qaytarishga ishlatmaslik imkoniyatlarini ta'minlaydi.
- 7.10. Merchant tomonidan mablag'larni qaytarish to'g'risida Emitent Bankka taqdim etiladigan arizasidagi umumiy miqdor Elektron hamyon balansidagi qoldiqdan oshib ketmasligi lozim.
- 7.11. Merchantga o'tkazilishi lozim bo'lgan tegishli pul miqdori Merchantning bank hisob raqamiga o'tkazmasi amalga oshirilgan paytdan boshlab, u Emitent Bank tomonidan to'langan hisoblanadi.
- 7.12. Elektron pullarni ruxsatsiz chiqarish holatlari mazkur Shartnomaning shartlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

8. ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ БИТИМЛАР БЎЙИЧА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ТЎЛОВЛАРНИ ҚАЙТАРИШ ТАРТИБИ

- 8.1. Merchant fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha to'lovlarni O'zbekiston Respublikasining iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi amaldagi qonunchiligi bo'yicha o'rnatilgan hollarda va tartibda amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 8.2. Merchant agar u va Mijoz o'rtasidagi kelishuvda yanada uzoq muddat belgilanmagan bo'lsa, olingan Elektron pullarning qaytarilishini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni tan olgan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda qaytarish majburiyatini oladi.
- 8.3. Agar Elektron pullarni qaytarish mazkur Shartnomaning 6.2. bandida ko'rsatilgan muddatda amalga oshirilmagan taqdirda Merchant Mijozga to'lovni ular mustaqil ravishda kelishgan boshqa usul orqali qaytarish majburiyatini oladi. Agar qaytarish Elektron pullar o'tkazmasidan a'lo darajada amalga oshirilgan bo'lsa, Merchant tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda Elektron pullarning qaytarilishini amalga oshirish bo'yicha arizani qaytarib olishga haqli hisoblanadi.
- 8.4. Qaytarish Qoidalarda nazarda tutilgan tartib va sharoitlarda amalga oshiriladi.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

- 9.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarini buzganliklari uchun Shartnoma, Tizim Qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar hisoblanadi.
- 9.2. Merchant mazkur Shartnoma, Tizim Qoidalari, Tariflarning shartlari bilan tanishmaganligi munosabati bilan ko'rgan har qanday zarari uchun Operator/Bank javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 9.3. Operator/Bank Elektron pullarning ruxsatsiz chiqarilishi va Elektron pul Egalari - jismoniy shaxslardan sotilgan tovarlar/xizmatlar uchun to'lovlarga bunday pullarni qabul qilishda Merchant oldida javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
- 9.4. Operator / Bank Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun agar bunday bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaslik Merchantning yoki boshqa hisob-kitob ishtirokchilarining aybi bilan sodir bo'lgan bo'lsa javobgar hisoblanmaydi.
- 9.5. Operator/Bank Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun agar bunday lozim darajada bajarmaslik Merchantning Elektron pullarni qaytarish to'g'risidagi Arizasida xato ma'lumotlarni qayd etgani bilan bog'liq bo'lsa, javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
- 9.6. Operator/Bank Merchant tomonidan Elektron pullar Egalariga sotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning sifati, butligi, shuningdek, boshqa iste'molchilik xususiyatlari uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
- 9.7. Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq maxfiy kalitlar, parollar va boshqa maxfiy axborotlarni saqlanishini ta'minlash, fosh etmaslik va uchinchi shaxslarga tarqatmaslik bo'yicha javobgarlikni zimmasiga oladi. Bunda Merchant maxfiy kalitlarni yo'qotganligi yoki maxfiy kalitlar, parollar va boshqa maxfiy axborotni yo'q qilganligi munosabati bilan Merchantda yuzaga kelgan barcha xarajat va zararlar uchun Merchant mustaqil ravishda javob beradi va Bankdan yoxud Operatordan ularni qoplashni talab etish huquqiga ega emas.
- 9.8. Tizim Operatori tizimning vaqtincha ishlamay qolishi, apparat yoki dasturiy ta'minotning ishlamay qolishi yoki uning aybisiz sodir bo'lgan xatolar uchun javobgar emas va Merchantning mumkin bo'lgan zararlari va qo'ldan boy bergan foydalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 9.9. Tizim Operatori boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan aloqa yo'nalishlarining sifati va unga tegishli bo'lmagan boshqa uskunalar, jumladan, boshqa tashkilotlarga tegishli bo'lgan ma'lumotlar uzatishning tranzit tarmoqlarining ishga layoqatsizligi uchun javobgar hisoblanamaydi.
- 9.10. Tizim Operatori Merchantning «A-Pay» tizimga kirishni ta'minlaydigan apparat vositalari ishlashidagi nosozliklar uchun javobgar emas va buning hisobiga Merchantning foydasiga etkazilgan zarar va yo'qotishlar uchun javob bermaydi.
- 9.11. Tomonlardan biri Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda boshqa Tomon buzilish holati aniqlangan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay yozma ravishda buzilganlik holati, vaqti va joyi, shuningdek, Shartnoma shartining buzilish holatini isbotlovchi dalillar ko'rsatgan tartibdagi e'tirozni jo'natish majburiyatini oladi. E'tirozni olgan Tomon uni olgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni davomida e'tirozga nisbatan asoslangan javobni jo'natishi shart. Agar Tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda ular Toshkent shahrining iqtisodiy masalalar bo'yicha tumanlararo sudiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.
- 9.12. Neustoyka (shartnomadagi biron-bir majburiyatni vaqtida bajarmaganlik uchun jarima), penya, jarimani to'lashga aybdor Tomonni Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini tegishlicha bajarishdan ozod etmaydi.

- 9.13. Dasturiy ta'minotda texnik xatolar aniqlangan taqdirda uning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan Tomonlar bunday nosozliklarni bartaraf etishning barcha chora-tadbirlarini zudlik bilan ko'rish majburiyatini oladi. Agar xatolarni 2 (ikki) hafta davomida bartaraf etish imkoni bo'lmagan taqdirda boshqa Tomon 2 (ikki) hafta o'tganidan keyin xatolarni bartaraf etish bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot berilishini talab qilish huquqiga ega.
- 9.14. Mazkur Shartnomaning 8.13-bandida qayd etilgan holatlar aniqlagan Tomon boshqa Tomonni aniqlangan paytdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida xabardor etish majburiyatini oladi.
- 9.15. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holatlarda bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagani taqdirida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
- 9.16. Tizim Operatori o'z xizmatlarini reklama qilishda Agent tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni reklama qilish va ushbu Shartnomada qayd etilgan xizmatlarni, savdo belgilarini, xizmat ko'rsatish belgilarini, tovarning nomlanishini, tasvirini, Agentning logotipini bepul taqdim etish huquqiga ega. Agent bunday savdo belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarning nomlanishi, tasviri, logotiplarini qo'llash uchinchi shaxslarning qonun bo'yicha belgilangan va himoyalangan huquqlarini buzmasligini kafolatlaydi.
- 9.17. Agar Tizim Operatoriga Agent tomonidan taqdim etilgan tasvirlar, logotiplar, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va savdo nomlarini noto'g'ri ishlatishiga nisbatan da'volar va/yoki sud da'volari kelib tushsa, u holda Agent nizoni hal qilishda ishtirok etish, bunday e'tirozlarni o'z hisobidan hal qilish, jumladan, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, logotiplar, savdo nomlari, tasvirlarni o'z mablag'i hisobidan noto'g'ri ishlatishi natijasida uchinchi shaxslarga, shuningdek, jabrlangan tomonga etkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi.

10. FORS-MAJOR HOLATLARI

- 10.1. Agar Tomonlardan qaysidir biri Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini u engib o'ta olmaydigan vaziyat va (yoki) Shartnoma tuzilguniga qadar noma'lum bo'lgan yoki bartaraf etib bo'lmaydigan, jumladan, suv toshqini, yong'in, sel kelishi, zilzila, urush, harbiy harakatlar, qamallar, eksport va importni taqiqlash, epidemiologik vaziyat kabi favqulodda holatlar yuzaga kelishi tufayli mazkur Shartnomada ko'rsatilgan to'liq yoki qisman bajarish layoqatiga ega bo'lmagan taqdirida mazkur Shartnomada ko'rsatilgan muddatlar bunday fors-majorli vaziyatlar amal qilish muddatiga qadar uzaytirilishi lozim. Agar bunday vaziyatlar yoki ularning oqibatlari 90 (to'qson) kundan oshsa, Tomonlardan istalgan biri Shartnomani bajarishdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi.
- 10.2. O'z majburiyatlarini bajarishga layoqatsiz Tomon boshqa Tomonni bunday fors-majorli holat paydo bo'lgani haqida zudlik bilan ogohlantirishi lozim. Fors-majorli vaziyatning mavjudligini tasdiqlash uchun tegishli davlat idorasi tomonidan imzolab berilgan ma'lumotnoma talab qilinadi. Mazkur ma'lumotnoma bunday fors-majorli vaziyat yuzaga kelganidan so'ng 10 (o'n) kun davomida boshqa Tomonga taqdim etilishi lozim.
- 10.3. Agar Tomonlardan biriga nisbatan bunday vaziyat 90 (to'qson) kalendar kunidan ortiq davom etgan taqdirda boshqa Tomon mazkur Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega bo'ladi, bunda u ikkinchi Tomonni bekor qilgunga qadar 10 (o'ng) kalendar kunidan kechiktirmasdan albatta ogohlantirishi lozim bo'ladi. Mazkur bandga muvofiq Shartnomani bekor qilish shartnoma bekor qilinguniga qadar mavjud bo'lgan o'zaro majburiyatlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi.

11. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 11.1. Mazkur Shartnomada yuzaga kelgan barcha bahsli masalalar muzokaralar va yozma da'vo yuborish yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo qabul qilgan tomon, qabul qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida javob yuborishga majbur. Agar da'vo Tomonlarning rekvizitlari bo'yicha jo'natilgan bo'lsa, agar u shaxsan topshirilgan, telefaks orqali jo'natilgan, buyurtma xat yoki kuryerlik xizmati orqali jo'natilgan bo'lsa, da'vo tegishli tarzda topshirilgan hisoblanadi.
- 11.2. Agar muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishilmasa, mazkur Shartnoma bilan bog'liq yoki uning buzilishi, bekor qilinishi, haqiqiy emasligi sababli yuzaga kelgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar Toshkent shahrining iqtisodiyot bo'yicha tumanlararo sudida hal qilinadi (shartnomaviy sudgacha bo'lgan jarayon).

12. MAXFIYLIK

- 12.1. Tomonlar tijorat va bank siri hisoblangan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashlari shart.
- 12.2. Tomonlar har bir Tomon uchun maxfiy bo'lgan mazkur Shartnomani amalga oshirishi jarayonida olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni o'z zimmalariga oladilar. Mazkur Shartnomada maxfiylik deganda fosh qilinishi Tomonlardan birining zarar ko'rishiga va/yoki ishbilarmonlik nufo'ziga ta'sir ko'rsatishga olib kelishi mumkin bo'lgan, hamma o'rganilishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlar tushuniladi.
- 12.3. Merchant maxfiylikni saqlash va o'zining Tizimga kirish ma'lumotlarini tarqatmaslik uchun javobgardir.
- 12.4. Merchant mustaqil ravishda o'zining autentifikatsiya ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish va uning mumkin bo'lgan loqaydligi oqibatida Merchantning ma'lumotlaridan foydalangan holda «A-Pay» tizimi resurlariga ruxsatsiz kirish, uchinchi shaxslar tomonidan jinoiy tajovuzlar, zararli dasturiy harakatlar yoki ko'zda tutilmagan harakatlarning oldini olish majburiyatini zimmasiga oladi.
- 12.5. Merchant uning tomonidan autentifikatsiya ma'lumotlarini yo'qotishi natijasida tizimdan uchinchi shaxslarning foydalanish xavfi to'g'risida tizim Operatorini zudlik bilan ogohlantirish majburiyatni oladi.
- 12.6. Tomonlar har qanday uchinchi Tomonning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari tijorat va bank sirini fosh etmaslik bo'yicha zarur choralarini ko'rishga majburdir. Olingan ma'lumot bilan faqat Tomonlarning xodimi bo'lgan shaxslar va mazkur shartnomaning ijrosi bilan bevosita bog'liq bo'linmalar tanishadilar.
- 12.7. Merchant tizim Operatoriga tizimning ishlashini ta'minlash, Merchantning topshiriqlarini bajarish, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish va boshqa zarur hollarda Merchantning har qanday rekvizitlarini, Merchantning tizimdagi amaliyotlari haqidagi ma'lumotlarni Emitent bankiga berish imkoniyatini taqdim etadi.
- 12.8. Shartnomaning 11-bandi uning amal qilish muddati tugaganidan so'ng, 5 yil davomida amal qiladi.

13. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 13.1. Mazkur Shartnoma ushbu Oferta Aksepti vaqtidan kuchga kiradi va 12 (o'n ikki) oy davomida amal qiladi.
- 13.2. Tomonlarning hech biri boshqa Tomonga Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan 30 (o'ttiz) kun avval, uni bekor qilish to'g'risida yozma xabar yubormagan bo'lsa, Shartnoma noma'lum muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.
- 13.3. Ushbu Ofertaning Merchant tomonidan aksepti deganda Merchantning mazkur Shartnomalar, Tizim Qoidalari, Tariflarning shartlarini to'liq va so'zsiz, hech qanday istisnolarsiz va cheklovlarsiz qabul qilishini anglatadi va bu ikki tomonlama yozma Shartnoma tuzish bilan tengdir.
- 13.4. Merchant Tizim Operatorining istalgan vaqtda mazkur Shartnomaga, Tariflarga va «A-Pay» Tizimi Qoidasiga bir tomonlama tartibda o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalariga kiritilgan qayd etilgan o'zgarish va qo'shimchalar yangi tahrirdagi Shartnoma, Tizim Qoidalari, Tariflar, qayd etilgan o'zgarishlar agar ular Tizim Operatorining saytida joylashtirilishida undan ko'proq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, chop etilganidan 15 (o'n besh) kalendar kunidan o'tib kuchga kiradi. Shartnoma, Tariflar, Tizimning Qoidalarining dolzarb tahriri bilan tanishish majburiyati Merchantga yuklatilgan. O'zgarishlar kuchga kirgandan so'ng «A-Pay» tizimidan foydalanish deganda Tomonlar bu o'zgarishlarni so'zsiz qabul qilishi tushuniladi.
- 13.5. Agar Merchant «A-Pay» Tizimining ishtirokchisi bo'lishni to'xtatsa, bunday hollarda mazkur shartnoma avtomatik ravishda bekor qilinadi.
- 13.6. Agar Shartnomaning bir yoki bir necha qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga o'zgartirish kiritilishi munosabati bilan haqiqiy emas deb hisoblanisa yoki shunga aylansa, u holda Shartnomaning boshqa qoidalarining amal qilinishini to'xtatish uchun asos bo'lib hisoblanmaydi.
- 13.7. Tomonlarning kelishuviga binoan Shartnoma muddatidan avval bekor qilinishi mumkin.
- 13.8. Tomonlardan birining Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi boshqa Tomonning mazkur Shartnoma shartlarini 6 oy davomida bir necha marta jiddiy buzishi (ikki yoki undan ortiq) holatlarida, bekor qilinishi sanasidan kamida 15 (o'n besh) kalendar kun oldin boshqa Tomonning manziliga yozma shakldagi ogohlantirishni jo'natgan holda amalga oshiriladi.
- 13.9. Tomonlardan birining tashabbusi bilan Shartnomaning muddatidan oldin bekor qilinishi, bunday bekor qilish sabablaridan qat'i nazar, boshqa Tomonga bunday bekor qilish sanasidan 30 (o'ttiz) kun oldin ogohlantirish yuborish orqali ijro etiladi.
- 13.10. Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalariga o'zgartirish kiritilgan va yangi tahrirdagi Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalarining ayrim shartlari bilan kelishuvga erishilmagan taqdirda Tomonlar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda Shartnomani bekor qilish huquqiga egadirlar.
- 13.11. Shartnomaning asoslarning hech birisiz bekor qilinishi Tomonlarning Shartnoma bekor qilinguniga qadar bajarilmagan bir-birlari yoki Tizimning boshqa ishtirokchilari oldidagi moliyaviy majburiyatlarining, shu jumladan, o'zaro to'lovlar, neustoykalar va zararni qoplash miqdorining bekor qilinishiga olib kelmaydi.
- 13.12. Agar mazkur Shartnomaning amal qilish muddati tugashi vaqtida Tomonlar o'rtasida yakunlanmagan hisob-kitoblar, yoki Tomonlarning boshqa bajarilmagan majburiyatlari mavjud bo'ladigan bo'lsa, u holda Shartnoma bunday bajarilmagan majburiyatlar lozim darajada ijro etilguniga qadar amal qiladi.

14. TIZIM OPERATORI VA MERCHANTNING O'ZARO TEXNIK HAMKORLIGI

14. 1. Merchantning tizimi bilan o'zaro texnik hamkorlikni sozlash va sinab ko'rish mazkur Shartnoma tartibi va shartlariga ko'ra amalga oshiriladi.
14. 2. «A-Pay» Tizimi va Merchantning tizimlari o'rtasidagi o'zaro texnik aloqa billingi yoki billingsiz API o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi.
14. 3. Merchant texnik o'zaro aloqani sozlash va sinovdan o'tkazilishini amalga oshirish uchun Tizim Operatoriga zarur ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi.
14. 4. O'zaro aloqa amalga oshirilayotgan Tizimga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, o'zgartirishlarni kiritgan Tomonlar boshqa tomonni 2 (ikki) haftadan kechikmasdan xabardor qilishi shart. Sinovdan o'tkazish takroran olib boriladi.
14. 5. Merchantda billing yoki billingsiz API orqali o'zaro aloqa uchun texnik imkoniyatlar yo'lq bo'lmagan taqdirda Merchant Mijozlarning so'rovlariga Merchantning Shaxsiy kabinetida birma-bir ishlov berish majburiyatini oladi.

15. BOSHQA SHARTLAR

15. 1. Merchant Shartnoma tuzish orqali Tizim Operatoriga ovozli qo'ng'iroqlarni amalga oshirish huquqini beradi, shuningdek, Tizim Operatoridan, shu bilan birga, Tizim Operatorining boshqa vakolatli shaxslaridan ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, Merchant tomonidan Tizimda ro'yxatdan o'tish vaqtida qayd etilgan Shaxsiy kabinetiga reklama tarqatmalari, sms-xabarlar, Abonent raqami/elektron pochta-siga xabarlar olish huquqini qo'lga kiritadi. Merchant shuningdek, Tizim Operatoriga Elektron puldan foydalangan holda to'lovni amalga oshirilganligini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumot so'rovlarni olish, Merchantga Elektron pullarini ishlatish orqali to'lovning amalga oshirilganlik maqomi to'g'risidagi ma'lumotni jo'natish, Merchantga boshqa ma'lumotlarni jo'natish uchun roziligini bildiradi.
15. 2. 15. 2. Tizim Ishtirokchilari dasturiy apparat majmui vositasida elektron shaklda to'ldirilgan, oddiy yozma shakldagi tegishli hujjatlarga yuridik jihatdan teng bo'lgan hujjatlarni tan oladi.
15. 3. 15. 3. Shartnomaning qandaydir qoidasi yoki sharti haqiqiy emas deb tan olingan taqdirda, mazkur vaziyat Shartnomaning qolgan shartlari va qoidalari hamda butun Shartnomani haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.
15. 4. 15. 4. Merchant mazkur Shartnomani tuzish orqali Tizim Operatoriga Tizimda tovar haqidagi matnli, audiovizual, grafik mazmundagi ma'lumotlar, axborot materiallarini, xizmatlarini, aktsiyalar va boshqalarni taqdim etadi. Merchant tomonidan taqdim etilgan tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlarning vizual belgi vositalaridan foydalanish, to'lovsiz xizmat ko'rsatish xizmatlaridan foydalanish huquqini taqdim etadi.
15. 5. 15. 5. Tomonlar 2 (ikki) bank ish kuni davomida bir-birini bank rekvizitlariga o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida ogohlantirish majburiyatini oladi
15. 6. 15. 6. Shartnomada ko'zda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladilar.

TO'LOV TASHKILOTI «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ. «A-Pay» ELEKTRON PULLAR TIZIMI OPERATORI

100090, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
A. Qahhor ko'chasi, 9-tor ko'cha, 1a-uy
STIR: 306 344 019
h/r: 2020 8000 4050 6594 4001
«Trastbank» XAB OPERBga
MFO: 00491,
Bank STIRi: 201 055 090
OKED: 58290
Tel: (+99855) 500 11 10